

CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

Mamatov.D.R

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.*

Annotatsiya. Chorvachilik jahon qishloq ho'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Dunyoda chorvachilik tarmoqlari xuddi donli ekinlar kabi hamma joyda tarqalgan. Qishloq ho'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibidagi o'tloqlar va yaylovlar haydaladigan yerlarga nisbatan uch barobar ko'proq maydonni egallashi uz aksini topgan. Qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishini yuritishdagi kamchiliklar atrofmuhitning ifloslanishi va tabiiy majmualarning jiddiy ravishda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Shuni e'tiborga olib, kelgusida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda bu boradagi resurslarni jiddiy rejalashtirish zarur bo'ladi. Istiqbolda chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish tarmoq samaradorligini oshirishga uzviy bog'liq bo'ladi.

Kalit so'zlar: yaylovlar, chorvachilik, tarmoqlar, mahsulot, qo'ychilik, texnologiya, ozuqa, energiya, seleksioner

Kirish: Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida chorvachilik sohasini isloh qilish, sohada bozor munosabatlarini keng joriy qilish, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, chorvachilik sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, sohaga resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo chorvachilik sohasida zotli chorva mollarining mahsuldorligi darajasini oshirish asosida sohani rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi ozuqa, suv va yaylovli yer kabi resurslardan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiruvchilarning yuqori daromad olishiga va ularning raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilishi mamlakatimizda hamon saqlanib qolayotgan dolzarb muammolardan biri sanaladi

Ayni paytda go'sht va sut mahsulotlarini yetishtirish bazasining milliy iqtisodiyotdagi inflyatsion jarayonlarga jiddiy ta'sirining mavjudligi rasmiy idoralar tomonidan tez-tez e'tirof etilmoqda. Mazkur holatga mamlakatimizda mahsuldor zotli chorva mollari bosh sonining yetishmasligi, yem-xashak bazasining rivojlanmaganligi mazkur mahsulotlarni ko'paytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada so'nggi 3 yil mobaynida go'sht va go'sht mahsulotlarining narxi qariyb 2 barobarga oshib ketdi. Bu holat mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlari hajmini yanada ko'paytirish va buning uchun zotli chorva mollarining mahsuldorligi borasida tadqiqot o'tkazishni taqozo etadi. Bu esa podaning tarkibini sifat jihatdan yangilab borish, zotli chorva mollarining mahsuldorligini

tahlil va prognoz qilish kabi jarayonlarni o'rganish chorvachilik sohasini intensiv rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarni belgilashning asosiy vositalaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik intensiv, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa asosan ekstensiv tavsifga ega. Hozirda dunyo bo'yicha qoramollar soni 4 milliard boshdan ortib ketdi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida chorvachilik ikkinchi darajali tarmoq hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa chorvachilik ziroatchilikdan ustun bo'lib, xo'jalik yuritishning intensiv turi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlardagi industrilash jarayonlari, ozuqa bazasini tubdan yaxshilash tadbirlari va naslchilik sohasidagi muvaffaqiyatlar chorvachilik sohasi mahsuldorligini keskin oshirish imkoniyatlarini yaratdi. Buning natijasida rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik mahsulotlari aholi ehtiyojlaridan ortiqcha darajada ishlab chiqarilmoqda. Shuni e'tiborga olib, xukumat chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqish hajmlarini qisqartirish va barqaror ushlab turish siyosatiga katta e'tibor bermoqda. Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishi va ixtisoslashuvchi darajasi ozuqa bazasining hajmi va tavsifiga uzviy bog'liq bo'ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari juda yuqori. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida esa chorvachilik tarmoqlari samaradorligi darajasi ancha past. Kelajakning eng muhim jihatlardan biri – Yer shari aholisi sonining tez va notekis o'sishi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich 2010-yildagi 7 milliard kishidan 2050-yilga borib 9 milliard kishiga ko'payishi taxmin qilingan. Ushbu miqdordagi insonlarni muvozanatlashtirilgan me'yorlarda oqsilga boy ovqatlanishini ta'minlash uchun barcha turdagi go'sht mahsulotlari hajmini 2011-yildagi 294 million tonnadan 2050-yilda 465 million tonnaga, sut mahsulotlarini 580 million tonnadan 1043 million tonnaga oshirish va tarkibini yanada takomillashtirish lozim bo'ladi. Qo'ychilik quruq dashtlar, chala cho'l va cho'lli hamda tog'li hududlari bor mamlakatlarda jadal rivojlangan. Avstraliya (130 million bosh), Xitoy (120 million bosh), Yangi Zelandiya, Hindiston, Turkiya, Qozog'iston, Rossiya, Mongoliya, Argentina, Urugvay kabi mamlakatlarda qo'yning soni ko'p. Ushbu mamlakatlar qo'y go'shti va yungni ishlab chiqarish bo'yicha boshqa mamlakatlardan oldinda turadi. Qo'y go'shti va yung ishlab chiqarish hamda eksport qilishda Avstraliya, Yangi Zelandiya va Argentina yetakchilik qiladi.

Jahonda har yili 220 million tonna go'sht – mol, parranda, qo'y go'shtlari ishlab chiqariladi. Aholi jon boshiga go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. Ularning birinchisida, aholi jon boshiga 80–100 kg (Yangi Zelandiyada 400 kg), ikkinchisida esa 15–20 kg go'sht to'g'ri kelishi mumkin.

Bugungi kunda milliy tovar va xizmatlar ishlab chiqarish asosida umumjahon qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqarishining yaxlit tizimi shakllangan. Qishloq ho'jaligida tovar mahsuloti ishlab chiqarishining qiymati bo'yicha Xitoy, AQSH, Rossiya, Hindiston va Yaponiya kabi mamlakatlar alohida ajralib turadi. Ushbu beshta mamlakat umumjahon qishloq ho'jaligi mahsulotining 2/5 qismini beradi.

Qishloq ho'jaligi mahsulotlari bilan savdo asosan rivojlangan mamlakatlar (G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya, Avstraliya, JAR, Isroil) mamlakatlari o'rtasida olib boriladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa ular ishlab chiqargan mahsulotlarni import qiladilar. O'zbekistonda so'nggi yillarda chorvachilikni rivojlantirish, ayniqsa, nasldor qo'ychilikni yaxshilash va sifatli mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishi natijasida muayyan ijobiy natijalarga erishildi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini o'stirishga jahon yer resurslarining cheklanganligi,

ekologik vaziyatning yomonlashib borishi, qishloq ho‘jaligi yerlaridan samarasiz foydalanish, iqlimning o‘zgarib borishi kabi tarmoqning rivojlanishini cheklovchi va salbiy omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Qishloq ho‘jaligi ishlab chiqarishini yuritishdagi kamchiliklar atrofmuhitning ifloslanishi va tabiiy majmualarning jiddiy ravishda o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shuni e‘tiborga olib, kelgusida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda bu boradagi resurslarni jiddiy rejalashtirish zarur bo‘ladi. Ya‘ni, xarajatlari kam, samaradorligi yuqori va innovatsion tarmoqlarni ustuvor suratlarda rivojlantirishga e‘tiborni kuchaytirish kerak bo‘ladi. Istiqbolda chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish tarmoq samaradorligini oshirishga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa. Chorvachilikda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi: rivojlangan immun tizimiga va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalariga yaxshi moslashgan bo‘lishi; yuqori takror ishlab chiqarish sifatlariga va uzoq muddat samarali foydalanish yo‘llariga; ozuqa moddalarning to‘yimlilik va ozuqa energiyasining samarali imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lishi zarur. Ushbu maqsadlarga erishish uchun genetiklar seleksionerlarning sa‘y-harakatlarini yo‘naltirish va albatta, davlatning bu boradagi rolini oshirish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Юнусов, Х. Б., & Захаров, С. Л. (2012). Разработка интегрированных методов глубокой очистки воды на основе баромембранных процессов и электрохимических технологий. *Химическое и нефтегазовое машиностроение*, (1), 38-41.
2. Юнусов, Х. Б. (2008). Совершенствование технологии электрохимической очистки воды от растворенных органических веществ. *Успехи в химии и химической технологии*, 22(10 (90)), 58-60.
3. Кривошея, И. В., Солтанов, С. Х., & Юнусов, Х. Б. (2016). Применение установки рекуперации нефтепродуктов, основанной на адсорбционных свойствах активированного угля. In *Актуальные проблемы биологической и химической экологии* (pp. 304-307).
4. Юнусов, Х. Б., & Силушкин, С. А. (2019). Гематологические и биохимические показатели крови кур-несушек при использовании в рационе настоя из лекарственных растений. In *Актуальные проблемы биологической и химической экологии* (pp. 79-84).
5. Балакин, Ю. А., Гладков, М. И., Юнусов, Х. Б., & Захаров, С. Л. (2015). Математическое моделирование влияния вибрации на рафинирование расплавов металлов. *Географическая среда и живые системы*, (4), 51-58.
6. Яромлович, В. А., Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Даминов, А. С., Дилмуродов, Н. Б., & Кулиев, Б. А. (2020). Морфофункциональная характеристика вымени у коров различной продуктивности.
7. Балакин, Ю. А., Юнусов, Х. Б., Будник, А. А., Соколов, И. В., & Хаулин, А. Н. (2016). Влияние внешнего воздействия на межфазное взаимодействие при кристаллизации металлов. *Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Естественные науки*, (2), 78-86.
8. Солтанов, С. Х., Кривошея, И. В., Позднякова, Д. В., & Юнусов, Х. Б. (2014). Негативные экологические последствия эмиссий авиадвигателей воздушных судов

гражданской авиации московского авиационного узла. *UNTRADITIONAL NATURAL RESOURCES, INNOVATION TECHNOLOGIES AND PRODUCTS*, 137.

9. Юнусов, Х. Б., Дроганова, Т. С., Поликарпова, Л. В., & Лялина, И. Ю. (2016). Влияние загрязнения водной среды на изменения ферментативной активности пресноводного моллюска живородка речная. *АгроЭкоИнфо*, (4 (26)), 6.
10. Кононенко, Л. В., Самбунова, Е. В., & Юнусов, Х. Б. (2018). Метапредметность: опыт, реализуемый в жизни. *Химия в школе*, (5), 50-54.
11. Раткевич, Е. Ю., & Юнусов, Х. Б. (2012). Основы экологического образования. *М.: Экомир*.
12. Юнусов, Х. Б. (2013). Дисциплина «Экология» для направления подготовки «Педагогическое образование», профили подготовки «Технологическое и экономическое образование», «Технологическое образование». *М.: МГОУ*.
13. ЮНУСОВА, Т., Лётова, К. К., & ЮНУСОВ, Х. (2015). Экологические проблемы окружающей среды и правовые основы работы с экологически опасными веществами и отходами. In *Проблемы экологии Московской области* (pp. 72-74).
14. Кривошея, И. В., Солтанов, С. Х., Лялина, И. Ю., & Юнусов, Х. Б. (2015). Применение фиторемедиации как одного из эффективных и перспективных методов очистки почв от тяжелых металлов на территориях, прилегающих к аэродромам и автозаправочным станциям. *Министерство экологии и природопользования Московской области*, 84.
15. Yunusov, K. B. (2020). PATOMORPHOLOGICAL AND HISTOCHEMICAL INDICES IN EXPERIMENTAL PNEUMONIA IN KARAKUL LAMBS OF UZBEKISTAN.
16. Yunusov, K. B. (2020). PATOMORPHOLOGICAL AND HISTOCHEMICAL INDICES IN EXPERIMENTAL PNEUMONIA IN KARAKUL LAMBS OF UZBEKISTAN.
17. Юнусов, Х. Б., Салимов, Ю., & Нуруллаев, А. А. (2021). Техноген омилларни махсулдор хайвонлар организмига ўзига хос таъсирлари. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).
18. Джаббаров, Ш. А., Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., & Нормурадова, З. Ф. (2021). Современное состояние гельминтофауны кошек.
19. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., & Бугаева, И. М. (2021). Международные отношения в области образования между Самаркандским институтом ветеринарной медицины и Витебской государственной академией ветеринарной медицины.
20. Усиков, М. А., & Юнусов, Х. Б. (2021). СНИЖЕНИЕ ГАРМОНИЧЕСКИХ ИСКАЖЕНИЙ В ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СЕТИ ПРИ ПИТАНИИ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ЧАСТОТЫ ЭЛЕКТРОПРИВОДОВ БУРОВЫХ УСТАНОВОК. In *Международная научно-практическая конференция «Уральская горная школа-регионам»* (pp. 161-162).
21. Soltanov, S. K., Yunusov, K. B., Yuldashbayev, Y. A., Zolotarev, S. V., & Vaimukanov, D. A. (2020). MODERN GEOCHEMICAL STATE OF THE ENVIRONMENT OF THE ADJACENT TERRITORIES OF THE DOMODEDOVO MOSCOW AIRPORT. *OF GEOLOGY AND TECHNICAL SCIENCES*, 31.

22. Голыбин, Ю. А., & Юнусов, Х. Б. (2020). ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ ПРИ АВТОМАТИЗАЦИИ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ. In *Уральская горная школа-регионам* (pp. 196-197).
23. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). Inspection of meat products and improvement of control at the slaughterhouse. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.
24. Юнусов, Х. Б. (2020). Патоморфологическая характеристика мочевыводящих путей у продуктивных животных. In *ВОПРОСЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ ГИСТОЛОГИИ* (pp. 167-170).
25. Кучинский, М. П., Юнусов, Х. Б., Джаббаров, Ш. А., Салимов, Ю., & Федотов, Д. Н. (2020). Токсикологическая оценка полиионного дезинтоксикационного препарата для животных. In *Состояние разработки и производства биологических и ветеринарных препаратов и возможности расширения их локализации* (pp. 63-65).
26. Юнусов, Х. Б., Захаров, С. Л., Зверев, О. М., Солтанов, С. Х., & Кривошея, И. В. (2015). УЛУЧШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СТОЧНЫХ ВОД НА ТЕКСТИЛЬНОМ ПРЕДПРИЯТИИ. In *Нетрадиционные природные ресурсы, инновационные технологии и продукты* (pp. 13-17).
27. Boysinova, N., Ibragimov, F., Yunusov, K., Achilov, O., & Rasulov, U. (2024). The effectiveness of using probiotics, their effect on growth and chemical composition of broiler chicken meat. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01013). EDP Sciences.
28. Юнусов Х. Б., Ачилов О. Э., Султонкулов А. И. ЭХИНОКОККОЗ БИЛАН ЗАРАРЛАНГАН ҚЎЙ ГЎШТИНИ ВЕТЕРИНАРИЯ САНИТАРИЯ ЖИҲАТДАН БАҲОЛАШ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 22. – №. 2. – С. 3-14.
29. Юнусов, Х. Б., & Турдиев, А. К. (2022). РЕСПУБЛИКАДА ҚУЁНЧИЛИК РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 714-719.
30. Захаров, С. Л., and Харис Бариевич Юнусов. "Бароэлектрохимические процессы и аппараты на мембранах различной пористости." (2009).